



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28  
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2023 yil “5” sentabr

01-07570 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining  
1-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«30» avgust 2023 yil

**Raislik qiluvchi: Sh.A. Boymuradov**

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
v.v.b rektori, professor

**Qatnashdilar:**

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
Ilmiy kengashi a‘zolari  
(ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI**

1. 2022-2023 o‘quv yili hisoboti va yangi o‘quv yilida ustuvor vazifalar.  
Ma‘ruzachi - Akademiya rektori Shadmanov Alisher Kayumovich.
2. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

**QAROR QILADI:**

1. Kun tartibining asosiy masalasi bo‘yicha “2022-2023 o‘quv yili hisoboti va yangi o‘quv yilida ustuvor vazifalar” mavzusi bo‘yicha Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) rektori Shadmanov Alisher Kayumovichning ma‘lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma‘ruza matnda keltirilgan).

1.1. Akademiyaning barcha kurslarida o‘quv jarayonini to‘liq raqamlashtirish va HEMIS tizimida to‘liq ish yuritish maqsadida elektron jurnal va qaydnomalarni o‘z vaqtida to‘ldirib yuritilishi, mavjud Moodle platformasi bilan integratsiya qilinishi, ta‘lim resurslarini kiritilishi, davomat qismidan foydalanilishi, shuningdek, raqamli imzo orqali barcha tizimlardan foydalanilishi ta‘minlansin.

**Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi (RTTM) boshlig'i A.K.Musaxonov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-yil sentyabr.**

1.2. Xodimlar bo'limining ish faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida tegishli barcha hujjatlarning yuritilishini raqamlashtirilgan elektron tizimiga to'liq o'tkazilishi ta'minlansin.

**Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Xodimlar bo'limi boshlig'i N.A. Ismatullaeva, Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi (RTTM) boshlig'i A.K. Musaxonov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o'quv yili davomida.**

1.3. Axborot resurs markazidagi (ARM) o'quv adabiyotlari fondini taftish qilinishi, malakali professor-o'qituvchilarni jalb etgan holda mavjud bo'lmagan va yetishmaydigan adabiyotlarni yaratilishi va xarid qilinishi choralari ko'rib chiqilsin. Shuningdek, mutaxassisliklar bo'yicha kafedralar kesimida adabiyot va ko'rgazmali o'quv qurollar bo'yicha mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida ma'lumot berilsin.

**Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, ARM direktori G.V.Kuzmina, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-yil sentyabr.**

1.4. Barcha mutaxassislik fanlari bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat uchun testlar bazasini yangilanishi hamda amaliy ko'nikmalar ro'yxatini qaytadan shakllantirilishi hamda bajarilishining sifatini oshirilishi ta'minlansin.

**Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022-yil sentyabr.**

1.5. Yangi ochilgan "Pediatriya ishi", "Stomatologiya" va "Farmatsiya", "Oliy hamshiralik ishi" va "Kimyo" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun texnoparklarni tashkil qilinishi yo'lga qo'yilsin.

**Ma'sul: O'quv ishlari buyicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va taalluqli kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.6. Yosh pedagog-kadrlarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida chet eldagi nufuzli OTMlarda stajirovkasini tashkil etilishi ta'minlansin.

**Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, Halqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.J.Israilov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.7. Pedagog xodimlarni ishga olish va lavozimga o'tkazishda Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi 20-sonli qarorida belgilangan malaka talablari bilan bir qatorda ularning ilmiy salohiyati, chet tilini bilish bo'yicha sertifikatlarining mavjudligi, sohaga oid normativ-xuquqiy hujjatlarni bilish darajasiga alohida e'tibor qaratilishi ta'minlansin.

**Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Xodimlar bulimi boshligi N.A.Ismatullayeva, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o'quv yili davomida.**

1.8. Simulyatsion o'qitish tizimini rivojlantirish maqsadida barcha mutaxassisliklar bo'yicha trenerlarni, jumladan talabalar orasidan, tayyorlanishi ta'minlansin.

**Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o'quv yili davomida.**

1.9. Akademiya va kafedralarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida ishga qabul qilingan yosh kadrlarning mavzularini o'z vaqtida tasdiqlanishi va bajarilishi bo'yicha monitoringi olib borilsin.

**Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshligi Z.A.Muminova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.10. Xalqaro «Scopus», «Web of Science» ma'lumotlar bazasidagi va boshqa yuqori impakt faktorga ega jurnallarda maqolalar chop etilishi faollashtirilsin va chop etishdan oldin Akademiya ekspertlar hay'ati tomonidan tegishli maslahat va xulosalar olinishi ta'minlansin.

**Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshligi Z.A.Muminova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.11. Barcha kafedralarning ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirishda va amalga oshirishda Akademiyaning Biotibbiyot texnologiyalar markazi (BTM) bilan shartnomalar tuzilishi, uning imkoniyatidan keng foydalanilishi ta'minlansin.

**Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, BTM rahbari A.A.Abdullayev, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.12. Akademiyada barcha ilmiy-tadqiqot ishlari yuqori darajada bajarilishini ta'minlash maqsadida doktorant va mustaqil izlanuvchilarni Biotibbiyot Markaziga biriktirilishi hamda ilmiy izlanishlariga oid zarur reaktivlar va reagentlar ro'yxati shakllantirilishi ta'minlansin.

**Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, BTM rahbari A.A.Abdullayev, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

13. Kafedra xodimlarining mahalliy va xorijiy ilmiy grantlarda faol ishtirok etishlari hamda xo'jalik shartnomalarni jalb etilishi bo'yicha ishlar jadallashtirilsin.

**Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i**

**Z.A.Muminova, Ilmiy-tadqiqot sektori boshlig'i D.A.Akramov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.14. Akademiyaning yosh xodimlari, shuningdek, iqtidorli talabalar va magistr-talabalar Start-app loyihalariga jalb etilishi bo'yicha ishlar jadallashtirilsin (tushuntirish, tayyorlash, ish yuritish va h.k o'rgatish).

**Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.15. Akademiya xodimlarning chop etishga taklif etilayotgan ilmiy maqolalarining sifatini oshirish maqsadida malakali professor-o'qituvchilar tarkibidagi tahririyat a'zolari tuzilishi va ikki tomonlama sharh o'tkazilishini (rus: двойное слепое рецензирование) yo'lga qo'yilsin.

**Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.16. Barcha kafedralarda iqtidorli talabalarni saralash, ularni ilmiy – tadqiqot izlanishlarga keng jalb etish bo'yicha ishlar faollashtirilsin.

**Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.17. 2023/2024-o'quv yili davomida Akademiyaning kafedralarida halqaro faoliyatni takomillashtirish maqsadida quyidagi vazifalar amalga oshirilishi ta'minlansin:

- xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda uzoq muddatli strategik hamkorlik aloqalari o'rnatilishi va mustahkamlanishi;

- chet ellik mutaxassis tashrifini tashkil etilishi va hamkorlikda o'quv jarayonini o'tkazilishi;

- o'quv jarayoniga xorijlik mutaxassislarni doimiy ravishda hamda masofaviy formatda) jalb qilinishi;

-xorijiy hamkorlar bilan birgalikda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etilishi;

- chet-ellik hamkorlar bilan birgalikda qo'shma maqolalar chop etilishi va dissertatsiya ishlariga xorijlik mutaxassisni ilmiy rahbarlikga jalb etilishi ta'minlansin.

**Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, Halqaro bo'lim boshlig'i M.M.Jafarov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

1.18. Barcha kafedralarning davolash ishlarini takomillashtirish maqsadida tegishli klinik bazalari taftish qilinsin, uzoq joylashgan va talabalar uchun sharoiti yaxshi bo'lmagan bazalar samaradorligi ko'rib chiqilsin hamda Akademiya yangi birlashtirilgan klinik bazalar imkoniyatidan keng foydalanishi ta'minlansin.

**Ma'sul: Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023-yil sentyabr.**

1.19. Akademiya qoshidagi Muzei ishlari yakunlanishi ta'minlansin.

**Ma'sul: Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.**

2. Turli masalalar bo'yicha O'quv ishlari buyicha prorektor Sh.A.Boymuratov, Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova so'zga chiqdilar.

2.1. O'zbekiston vrachlar Assotsiatsiyasining stipendiyasiga 1-son Davolash fakulteti 6 kurs talabalari: **Yunusova Mavzoda, Valijonova Shirina, Xursanova Moxinurbonularning nomzodlari** tasdiqlansin.

2.2. Yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishda, jumladan Gippokamp dasturini yaratishda va amaliyotga tatbiq etishda faollik ko'rsatgan 2-son Davolash fakulteti 6 kurs bitiruvchisi **Baxromov Abduraxmon** akademiyaning qo'shimcha mablag'lari hisobiga magistraturaga qabul qilinishiga tavsiya etilsin.

2.3. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining talabalar oqimini muvofiqlashtirishga doir ko'rsatmasiga binoan Toshkent tibbiyot akademiyasida 1-kursga o'qishga tavsiya etilgan talabalar uchun maxsus onlayn tarzda 1-kurs maktabi joriy yilning 18-sentabr kuniga qadar davom ettirilsin hamda Xalqaro fakultet talabalari uchun viza hamda Toshkent shahrida ro'yxatdan o'tish bilan bog'liq jarayonlar tufayli xorijiy fuqarolar uchun ta'lim gibril formatda tashkil etilishi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Matkaziy Kengashining 2023–yil 23-iyundagi 23,15,10,5 - sonli qo'shma qarori bilan tasdiqlangan “Odob axloq kodeksi” asosida tayyorlangan Toshkent tibbiyot akademiyasining “Odob-axloq kodeksi” tasdiqlansin. Kitobcha shaklida 5000 nusxada chop ettirilsin va talabalarga tarqatilishi ta'minlansin.

Akademiya talabalari ush bu “Odob-axloq kodeksi” bilan tanishtirilsinlar.

**Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i M.A.Xasanova, yuriskonsult S.M.Yusupova, Tahririyat nashriyot bo'limi boshlig'i M.Aslanov, barcha fakultet dekanlari.**

**Muddat: 2023 yil 5-sentabr.**

2.5. 2023/2024 o'quv yili uchun barcha ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, kredit-modul o'qitish tizimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil 9 iyundagi 259-sonli buyrug'i asosida tayyorlangan 1- kurs o'quv dasturlari, SILLABUSlari tasdiqlansin va o'quv jarayoniga tadbiiq etilsin.

2.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 393-son qarori 3-ilovasiga muvofiq bir oliy ta’lim muassasasi doirasida oliy ta’limning mos va turdosh yo‘nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo‘yicha talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash shu oliy ta’lim muassasasi rektorining buyrug‘i asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek mazkur qarorning 3-ilovasi 9-bandiga muvofiq oliy ta’lim muassasasi moddiy-texnik bazasi imkoniyatlari cheklanaganda fuqaro arizasiga rad javobini berish vakolati keltirilgan.

Yuqoridagi holatlar hamda tegishli ta’lim yo‘nalishlari uchun ajratilgan kvotalar to‘lganligi, mazkur kvotalar uchun ta’lim beruvchilar shtatlari o‘quv yili boshida taqsimlanishi tufayli akademiyada mazkur 2023/2024-o‘quv yilidan TTA doirasida mos va turdosh yo‘nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo‘yicha talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash rad etilsin.

**O‘quv ishlari  
bo'yicha prorektor**



**Sh.Boymuradov**

Ijrochi: G.Ismailova  
ID: 511439  
Sana: 05.09.2023